Journal of Chemistry of Goods and Traditional Medicine

J Chem Good Trad Med, Volume 3, Issue 2, 2024 Chemistry of Goods

BRONXIAL ASTMA KASALLIGINI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARNING TOVAR KODLARINI ISHLAB CHIQISH.

Shaxobidin Xasanboyevich Abdulloyev
Andijon davlat universiteti, Kimyo kafedrasi professori, kimyo fanlari doktori (DSc)
https://orcid.org/0000-0002-6069-1785

Mehrinoz Mirzayeva
Andijon davlat universiteti, Magistratura 2-kurs talabasi
https://orcid.org/0009-0001-0744-8479

DOI: https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol3.iss2.2024.294

Kalit so'zlar:
Bronxial astma, dori vositalari, tovarlarning uyg'unlashtirilgan tizimi, tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasi bo'yicha tasnifi, kod raqamlarini ishlab chiqish

Annotation
Ushbu maqolada tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasiga (TIF TN) muvofiq kimyoviy tarkibidan kelib chiqqan holda bronxial astmani davolashda dori vositalarining kod raqamlarining ishlab chiqishni taklif etiladi.

Havola uchun:
Abdulloyev, S. X., & Mirzayeva, M. (2024). BRONXIAL ASTMA KASALLIGINI DAVOLASHDA QO'LLANILADIGAN DORI VOSITALARNING TOVAR KODLARINI ISHLAB CHIQISH. Tovarlar Kimyosi Va Xalq Tabobati Jurnali, 3(2), 54–64. https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol3.iss2.2024.294

Kattalar va bolalarda eng keng tarqalgan surunkali kasalliklardan biri bu bronxial astma (BA) [1]. Astmaning asosiy sabablaridan biri bronxial to'qimalarning allergenlar [2], kimyoviy yoki fizik omillar, shuningdek tananing reaktsiyasi natijasida kelib chiqqan yuqumli bo'lmagan yallig'lanishdir. Kechiktirilgan tashxis va noto'g'ri terapiya ushbu kasallikning og'ir kechishi va yuqori o'lim darajasining asosiy sabablari hisoblanadi [3].


Bronxial astma ushbu kasallik mexanizmiga qaratilgan asosiy terapevtik preparatlar bilan davolanadi. Bundan tashqari, hujumlarni engillashtirish uchun faqat bronxial naychalarning silliq mushaklariga ta'sir qiluvchi simptomatik dorilar qo'llaniladi [3,1]. Hozirgi vaqtda «Pulmikort» [4], «Budenit Steri-Neb» [5], «Benokart» [6], «Simbikort turbuxaler» [7], «Alvesko» [8], «Bekotid» [9], «Beklazon Eko» [10], «Asmaneks tvistxeyler» [11], «Flutikazon» [12], «Azmokort» [13], «Fliktosid» [14] kabi dori vositalari BAni davolashda qo'llaniladi.

Biz avvalroq [15] astmani davolashda ishlatiladigan dori-darmonlarni asosiy faol moddaning kimyoviy tarkibiga ko'ra tasniflashga harakat qilib, ushbu dorilarni ularning tarkibida galogen mavjudligiga qarab tasniflashni taklif qilgan edik. Mazkur maqolada biz ushbu dori vositalari ta'sir mexanizmiga ko'ra glyukokortikoid steroidlar [16] ekanligini hisobga olgan holda tasniflashni va tovar kod raqamlarini ishlab chiqishni maqsad qilib belgiladik.


Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasining uyg'unlashtirilgan tizimning amaldagi 2022 yil tahririga muvofiq dori vositalari "Kimyoviy va turdosh sanoat mahsulotlari" nomli VI bo'limning – "Farmatsevtika mahsulotlari" nomli 30-guruhiga kiradi [17]. Terapevtik yoki profilaktik maqsadlarda chakana sotish uchun dozalash shakllariga qadoqlangan dori vositalari 3004-pozitsiyada joylashgan bo'lib, "Aralashgan yoki aralashmagan mahsulotlardan tarkib topgan, terapevtik yoki profilaktik maqsadda foydalanish uchun, chakana savdo uchun dozalangan dori shakli ko'rinishida (shu jumladan, transdermal tizim shaklidagi dori vositalar) qadoqlangan, shaklli yoki o'ramli dori vositalari (3002, 3005 yoki 3006 tovar pozitsiyalaridan tashqari mahsulotlar)" deb nomlangan. Kortikosteroid gormonlar yoki ularning tarkibiy analoglari 3004 32 000

podsubpozitsiyasida “– – kortikosteroidli gormonlar, ularning hosilalarini yoki strukturali analoglarini saqlovchi” njm bilan belgilangan. Amaldagi Yevro Osiyo iqtisodiy ittifoqi Tashqi iqtisodiy faoliyat Tovar nomenklaturasi va Yagona bojxona tarifiga muvofiq, [18] unga kiritilgan birinchi podsubpozitsiya 3004 32 000 1 "--- chakana savdo uchun shaklli ko’rinishga keltirilgan yoki qadoqlarga solingan va asosiy faol moddasi sifatida faqat fluotsinolonni o'z ichiga olgan” deb nomlangan.

«Pulmikort», «Budenit Steri-Neb», «Benokart», «Simbikort turbuxaler», «Alvesko», «Bekotid», «Beklazon Eko», «Asmaneks tvistxeyler», «Flutikazon», «Azmokort», «Fliktosid» kabi dori vositalarining asosiy ta’sir etuvchi moddalari kortikosteroidlar sinfidan glyukokortikosteroidlardir. Ushbu dori vositalarning ta’sir etuvchi moddalarini molekulalarining tuzilishini batafsil tahlil qilish, ularning barchasi pregnanlarning analoglari [19] (1-rasm), aniqrog’i pregna-1,4-dien-3,20-dion hosilalari [19] kanligini ko'rsatadi (2-rasm):



1-rasm. Pregnan molekulasidagi uglerod atomlarini raqamlash .



2-rasm. Pregna-1,4-dien-3,20-dionning tuzilishi.

O’rganilgan dorilar samarali glyukokortikosteroidlar sifatida nafaqat bronxial astmani davolashda, balki boshqa kasalliklarni davolashda ham qo'llanilishi mumkin. Yuqoridagilar hisobga olgan holda, biz bu dori vositalariga **3004 32 000 2** tovar kodi ajratib, uni “– – – chakana savdo uchun shaklli ko’rinishga keltirilgan yoki qadoqlarga solingan tarkibida asosiy ta’sir etuvchi modda sifatida pregna-1,4-dien-3,20-dion hosilalarini o’z ichiga olgan” deb nomlashni taklif qilamiz. Bronxial astmani davolashda qo'llaniladigan boshqa dorilarni **3004 32 000 8** – “– – – boshqalar” podsubpozitsiyaga kiritilishi mumkin. Bu holda, o'rganilayotgan dori vositalari uchun tovar kodlari raqamlarining biz taklif qilayotgan taqsimoti, jadval ko'rinishida 1-jadvalda ko'rsatilgan shaklga ega bo'ladi.

1-jadval.

Bronxial astmani davolashda ishlatiladigan dori-darmonlar uchun ishlab chiqilgan tovar kod raqamlari.

Guruh	Pozitsiya	Subpozitsiya	Podsubpozitsiya	Sinf nomi
30	Farmatsevtika mahsulotlari.			
	3004	- Aralashgan yoki aralashmagan mahsulotlardan tarkib topgan, terapevtik yoki profilaktik maqsadda foydalanish uchun, chakana savdo uchun dozalangan dori shakli ko‘rinishida (shu jumladan, transdermal tizim shaklidagi dori vositalar) qadoqlangan, shaklli yoki o‘ramli dori vositalari (3002, 3005 yoki 3006 tovar pozitsiyalaridan tashqari mahsulotlar):		
		300432000	--kortikosteroidli gormonlar, ularning hosilalarini yoki strukturali analoglarini saqlovchi:	

			3004320001	--- chakana savdo uchun shaklli ko'rinishga keltirilgan yoki qadoqlarga solingan va asosiy faol moddasi sifatida faqat fluotsinolonni o'z ichiga olgan.
			3004320002	---chakana savdo uchun shaklli ko'rinishga keltirilgan yoki qadoqlarga solingan tarkibida asosiy ta'sir etuvchi modda sifatida pregna-1,4-dien-3,20-dion hosilalarini o'z ichiga olgan.
			3004320008	---boshqalar.

Xulosa. Bronxial astmani davolashda qo'llaniladigan ko'pgina dorilar uchun kimyoviy tarkibi asosida "**---**chakana savdo uchun shaklli ko'rinishga keltirilgan yoki qadoqlarga solingan tarkibida asosiy ta'sir etuvchi modda sifatida pregna-1,4-dien-3,20-dion hosilalarini o'z ichiga olgan" deb nomlangan yangi **3004320002** tovar kodi taklif qilindi. Ushbu tovar kodi yuqorida ko'rsatilgan dori vositalariga eksport va import jarayonida bojxona to'lovlarini to'g'ri belgilash imkonini beradi.

Adabiyotlar

1. Бронхиальная астма: симптомы и лечение, признаки у взрослых. / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://medsi.ru/articles/bronkhialnaya-astma-simptomy-i-lechenie-priznaki-u-vzroslykh/
2. Rosmilah, M. "Characterization of major allergens of royal jelly Apis mellifera". — Trop Biomed. — декабрь 2008. — С. 243—251.
3. Клинические рекомендации. Бронхиальная астма. 2021. Мин.Здрав. РФ. -С. 118. / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://spulmo.ru/upload/kr/BA_2021.pdf
4. Пульмикорт (Pulmicort) инструкция по применению / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://www.vidal.ru/drugs/pulmicort__1801
5. Буденит Стери-Неб (Budenit Steri-Neb) инструкция по применению / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://www.vidal.ru/drugs/budenit_steri-neb__29975
6. Бенакорт® (Benacort) / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://www.vidal.ru/drugs/benacort__1262
7. Симбикорт® Турбухалер® (Symbicort Turbuhaler) инструкция по применению / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://www.vidal.ru/drugs/symbicort_turbuhaler__39505
8. Альвеско® (Alvesco®) инструкция по применению. / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://www.vidal.ru/drugs/alvesco__31644
9. Бекотид (Becotide) инструкция по применению. / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://www.vidal.ru/drugs/becotide__14771
10. Беклазон ЭКО (Beclazone ECO). https://www.vidal.ru/drugs/beclazone_eco__36799
11. Асманекс Твистхейлер. / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://www.eapteka.ru/goods/drugs/otolaryngology/infection/asmaneks_tvistkheyler_sherin g_plau/
12. Флутиказон Эйр (Fluticasone Air). / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://www.vidal.ru/drugs/flutikazon-eir
13. Азмакорт (Azmacort). / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://www.rlsnet.ru/drugs/azmakort-73

14. Фликсотид® (Flixotide®) инструкция по применению. / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://www.vidal.ru/drugs/flixotide__898
15. Абдуллоев, Ш. Х., & Мирзаева, М. (2023). Лекарственные средства при лечении бронхиальной астмы и их классификация по тн вэд. Журнал химии товаров и народной медицины, 2(5), 52–65. / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://doi.org/10.55475/jcgtm/vol2.iss5.2023.224
16. Glucocorticoid. Url: https://en.wikipedia.org/wiki/Glucocorticoid
17. TIF TN kodlari ma'lumotnomasi. / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://lex.uz/acts/-6337000.
18. ТН ВЭД ЕАЭС и Единый Таможенный Тариф. / [Электронный ресурс]. - Режим доступа: URL: https://www.tws.by/tws/tnved
19. Прегнан. Url: https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9F%D1%80%D0%B5%D0%B3%D0%BD%D0%B0%D0%BD.